

MUSIQA TO'GARAKLARI JARAYONIDA TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI YO'LLARI

B.R.Boltayev – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*
O'zbekiston-Finlyandiya Pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: hissiy (emosional) dramaturgiya; kompozisiya, badiiy matn, reproduktiv metod, amaliy metod, ko'rgazmali metod

Ключевые слова: эмоциональная (эмоциональная) драматургия; композиция, художественный текст, репродуктивный метод, практический метод, демонстрационный метод

Key words: emotional (emotional) dramaturgy; composition, literary text, reproductive method, practical method, demonstration method

Kirish. Ma'lumki, yer yuzida musiqadan inson tuyg'ulari va irodasiga ta'sir ko'rsatuvchi vosita sifatida hamma zamonlarda o'ziga xos va mos tarzda foydalanib kelingan. Afsuski, musiqaning bunday ta'sir imkoniyatidan bugungi kunda nafaqat badiiy didi past, balki san'atning qudratini payqay olmayotgan yoshlar tomonidan past saviyadagi har xil shou bizneslarda, turfa, yengil-yelpi qo'shiqlar ijrosida ham foydalanilmoqda. Bu, o'z navbatida, millatning ma'naviy takomili va saviyasiga aks ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday paytlarda maktablar badiiy to'garaklaridagi musiqiy ta'lim va tarbiya yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayni zamonda, musiqiy ta'limning har tomonlama va chuqur ilmiy-metodik masalalarini hal etish muammosi ham paydo bo'ladi. Shundan kelib chiqib, ta'lim tizimida umumpedagogik ta'lim metodlarini musiqaga o'qitish tizimiga ham bu yo'nalishning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarini inobatga olgan holda qo'llash yo'llarini belgilash va amaliyotga tatbiq etish davr talabidir.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Maktabda musiqaga to'garak ishlarining asosiy maqsadi yoshlarimizga musiqaga tarbiya ko'nikmalarini singdirish bilan birga o'quvchilarni Vatanga, millatga muhabbatini, komil inson qilib hamda, o'quvchilarni axloqiy-ma'naviy jihatdan tarbiyalash, havaskorlik to'garak a'zolarini ko'rik tanlovlarga tayyorlashdan iborat[8,8.b]

Musiqaga ta'limi metodikasi ilmi bilan shug'ullangan bir qator MDH davlatlari olimlari: E. B. Abdullin, L. A. Bezborodova va Yu. B. Aliev, G. B. Dvoynina, M. S. Osenneva. va bq.lar, musiqaga san'atining mohiyati obrazli va tushunchali, ratsional va emotsional voqe'likni ifodalovchi ohangni tushinish, his qilish orqali anglashilishini aytishgan. O'zbekistonlik olimlardan D.Soipova, M.Xo'jayeva, G.Sharipova, D.Karimovalar musiqaning badiiy mazmunini his etish asar bilan bevosita aloqadorlikda, yangrayotgan ohangni o'zlashtirish esa u bilan bevosita uyg'unlashib ketish asnosida his etilishi alohida ta'kidlagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Musiqaga ta'limi samaradorligini oshirishda, o'quvchilarning musiqaga, qo'shiq hamda raqslarga bo'lgan qiziqishlarini o'stirishda maktablardagi badiiy to'garaklari faoliyatida innovatsion hamda an'anaviy pedagogik texnologiyalardan maqsadga muvofiq tarzda foydalanishning ahamiyati beqiyosdir.

Ma'lumki, har bir xalqning badiiy madaniyati jahon xalqlari badiiy-musiqiy, madaniy boyligi taraqqiyotiga tayangan holda rivojlanadi. Shu ma'noda, xorijiy mamlakatlar musiqiy ta'lim-tarbiya tizimining interfaol usullarini o'rganish hamda ulardan nafaqat musiqaga darslari, balki badiiy-musiqiy to'garaklar faoliyatida ham samarali foydalanish musiqaga ta'limi, ayni zamonda, o'zaro totuvlik va bag'rikenglik hissini ham rivojlantirish samaradorligi garovidir.

Umumta'lim maktablari badiiy to'garaklari faoliyatida innovatsion pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi, o'z navbatida, to'garak rahbaridan ham katta pedagogik mahorat va tajribani talab qiladi. Buning uchun mashg'ulotlarni loyihalashtirish, musiqiy o'quv materiallarini o'quvchilarning o'zlashtirish darajalariga moslashtirish taqozo etiladi. Badiiy to'garaklar amaliyotiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish to'garak rahbari kasbiy faoliyati hamda to'garak a'zolari bilish va

ijro faoliyatini uyg'unlashtirishni, shu bilan birga, o'quvchilarda nozik badiiy did va ma'naviy barkamollikni ta'minlashni ham nazarda tutadi.

Musiqaning inson ruhiyatiga emotsional ta'siri insoniyat tomonidan allaqachonlar tan olingan. Lekin uzluksiz ta'lim tizimida san'at asarlari ustida ishlash metodlari bu sohada eng kam e'tibor qaratilgan yo'nalishlardan biridir. Bugungi kunda umumiy didaktikaning zamonaviy dunyoqarashga yetarli darajada e'tibor qaratmagan tamoyillariga tayangan holda san'at ta'limining yangilangan konsepsiyasini yaratish mushkul. Bundan tashqari, mazkur holatni nazariy asoslash uchun umumdidaiktik metodlarni musiqaga ta'limiga jalb etishning xususiy jihatlarini qarab chiqish ham davr talabidir.

Tahlil va natijalar. Pedagogik adabiyotlarda o'qitish metodiga yondashuvning ikki turi farqlanadi. Ular o'zaro metodlar haqidagi empirik va nazariy tasavvurlar bilan bog'liqdir. Birinchi yondashuv o'qituvchi va o'quvchilarning qo'yilgan o'quv maqsadiga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikdagi faoliyatiga tayanadi. Ikkinchisi esa, normativ bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan "o'qituvchi o'qitadi, o'quvchilar esa o'zlashtiradilar" tarzidagi qarashga asoslanadi. Musiqaga ta'limi pedagogikasi (nazariyasi va amaliyoti)da ham ta'lim metodlari deganda pedagogik qobiliyatlarning musiqiy ta'lim masalalarini yechish va musiqiy ta'lim mazmunini o'zlashtirish orasidagi mutanosiblik tushuniladi. Ya'ni musiqiy ta'lim metodlari deganda bu yo'nalishdagi musiqiy bilimlarni egallash, musiqiy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, xotira, tasavvur, mustaqil, mantiqiy va tez fikrlashni kuchaytirish, musiqaga hissiy qadriyat sifatida yondashish, badiiy did shakllantirish, san'at asarlariga oshno etish hamda san'at bilan tillasha oladigan shaxslarni shakllantirish yo'llari, usullari tushuniladi.

Pedagogika ilmda ta'limning keng qamrovli turfa metodlari mavjud bo'lib, ular bir qator o'ziga xos tasniflarga ega: bilimlar manbai (amaliy, ko'rgazmali, so'z bilan ishlash)ga ko'ra; o'quvchilarning har xil shaxsiy va xususiy imkoniyatlari (ta'sirchanligi, ongilligi, xarakteriga)ga ko'ra; o'quv faoliyatining xarakteri (ko'rsatish-tushuntirish, reproduktiv, muammoli va hk.)ga ko'ra. Bu metodlardan ma'lum qismi, bir qator adabiyotlarda ta'kidlanishicha, uchta guruhi: taqqoslash, ko'rgazmali-eshitish va so'z bilan ishlash turi musiqiy ta'lim amaliyotida ham qo'l keladi.

Shundan taqqoslash metodining musiqiy ta'limdagi xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- musiqaga materialining o'xshashlik va farqli jihatlarini;
- musiqiy materialning ma'lum hayotiy hodisalar va hayotiy jarayon bilan mutanosibligi;
- musiqaga san'atining mazmunan boshqa san'at (haykaltaroshlik, adabiyot va rang-tasvir singari) turlari bilan taqqoslanishi. [2,207.b]

Musiqiy ta'limda, bulardan tashqari, musiqaga asarlarini cholib namoyish etish va so'z bilan ishlash metodlari (musiqaning badiiy obrazli mazmunini so'z orqali ifodalash, qo'shiq matnini, raqs xatti-harakatlarini so'zda bayon etib berish singari) ham alohida ajratib ko'rsatiladi.

Maktablarda tashkil etiladigan badiiy to'garaklarning a'zolari har xil yoshda bo'lishi tabiiy. Bu yerda yosh emas, balki ijodga bo'lgan musiqiy qobiliyat, qiziqish, intilish,

izlanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shularga asoslanilgan holda musiqiy ta'limda: 1) **hissiy (emotsional) dramaturgiya**; 2) **kompozitsiya yaratish**; 3) **badiiy matn yaratish** singari metodlar ustuvorlik qiladi. O'quvchilarga, ularning yoshidan qat'i nazar, musiqiy ta'lim beruvchi bu metodlar ularning har biri har xil yo'nalishdagi musiqiy faoliyatni qamrab olishlariga, ularni ijodga undashga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish singari umumiy xususiyatlarga egaligi bilan boshqa didaktik metodlardan ajralib turadi.[1,115.b]




Musiqiy ta'limda yetakchi o'rinda turuvchi "**Hissiy (emotsional) dramaturgiya**" metodi ma'lum fragmentni yaratishda dramaturgik qonun-qodalariga amal qilishni taqozo etadi. [3,23.b] Bu metodning mohiyati shundan iboratki, unda musiqa ta'limi muallimi yoki badiiy to'garak rahbari biror musiqaning mazmuni, uning kulminatsion nuqtasi va yaratilish xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar tizimi (moduli)ni tavsiya etadi. Musiqa darslari, to'garak mashg'ulotlari, musiqiy festivallar, konsert va konkurslar shu metod asosida tashkil etiladi. Bunday tizimning muvaffaqiyati bir qator masalalar: o'qituvchi-rahbarning musiqiy fantaziyasi, o'quvchilarning umumiy va musiqiy bilimi darajasi, ularning ko'nikma va malakalari bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

"**Kompozitsiya yaratish**" metodi ham musiqa talimi tizimida samarali metodlardan biri sifatida musiqa asarlarini har xil yo'nalishlarda (xor, yakka ijro, elementar musiqa asboblari chalish, mazkur musiqa ostida harakatlanish va hk.) ijro etish orqali o'zlashtirishni nazarda tutadi. [3,23.b] Bu metod musiqiy ta'limda har xil musiqiy bilim darajasiga ega bo'lgan a'zolar ijodi jarayoniga o'zining nimaga qobiliyati borligini aniqlash imkoniyatini beradi. "Kompozitsiya yaratish" metodi o'qituvchi-rahbardan aranjirovka bilan bog'liq maxsus bilim va ko'nikmalarni ham talab qiladi.

"**Badiiy matn yaratish**" metodi ham umumta'lim maktablari musiqiy-ijodiy faoliyatini tashkil etishda, har xil badiiy to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yishda qo'l keladigan metodlarni to'ldiradi. [3,24.b] Bu metod musiqa bilan birga san'atning boshqa yo'nalishlari adabiyot, tarix, ayni hayotiy hodisalar aloqadorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Umumta'lim maktablarida tashkil etilgan badiiy to'garaklar amaliyotini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ta'limning bir qator interfaol metodlaridan ham foydalaniladi. To'garak rahbari va a'zolarining o'zaro hamkorligi asosida do'stona muhit yaratish, mashg'ulotlar samaradorligini ta'minlash, to'garak a'zolarining mustaqil fikrlashlari, munosabat bildirishga yo'naltirish bu metodlarning asosiy xususiyatlari sanaladi. Ta'limning interfaol metodlaridan badiiy to'garaklar faoliyatini tashkil etishda foydalanish to'garak a'zolarini yakka holda, juftlikda, guruhlarda muammoli savollarga javob topish, muammoli topshiriqlarning yechimiga erishish singari natijalarni kafolatlaydi. Bu tarzda o'zlashtirilgan musiqiy bilimlar to'garak a'zolarining xotirasida uzoq saqlanadi. Natijada to'garak a'zolari yangi axborotni o'zlashtirish jarayoniga tanqidiy, tahliliy yondasha boshlaydilar. To'garak rahbari esa faqat fasilitator (yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, tashkil qiluvchi, kuzatuvchi, bir so'z bilan aytganda, rejissyor) vazifasini bajaradi.




Ta'limning interfaol metodlaridan badiiy to'garaklar ishini tashkil etishda foydalanilganda to'garak rahbari va a'zolari o'rtasidagi amaliy muloqot (rahbarning biror musiqiy asarni, qo'shiq yoki raqsni shogirdlaridan biri yoki bir nechta bilan birgalikda ijro etishi) mashg'ulotlar samaradorligi ortishiga xizmat qiladi. Ta'limning interfaol metodlaridan o'qitishning barcha yo'nalishlarida faoliyatning mazmun-mohiyati va xususiyatlariga, tarbiyalanuvchilarning yoshi, intellektual imkoniyatlari, qobiliyati va iqtidoriga tayangan holda foydalanish mumkin.

Yuqorida keltirilgan interfaol usullarni to'garak faoliyatida o'rni bilan qo'llash eslab qolish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ma'naviyatini sog'lomlashtirishga, mustaqil fikrlashga, mustaqil faoliyatga o'rgatadi, bilishga qiziqishlarini oshiradi. Shu tariqa vatanparvarlik, insonparvarlik, samimiylik, kamtarlik, mehnatsevarlik, mehru-muruvvat, millatlararo totuvlik, insoniy bag'rikenglik kabi ijobiy sifatning shakllanishiga sharoit yaratiladi.

Maktablarda tashkil etiladigan badiiy to'garaklar musiqa rahbari ta'lim-tarbiya jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalanganda quyidagilarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratishi maqsadga muvofiqdir:

- to'garak a'zolarida kuy, qo'shiq, raqs san'atiga qiziqish uyg'otib, ularida mavjud bo'lgan musiqiy qobiliyatlarini o'stirish;
- milliy va o'zga millatlar musiqa merosiga chuqur hurmat hamda ehtirom, ona-Vatanga muhabbatu sadoqat tuyg'ularini tarbiyalash;
- har xil millatga mansub to'garak a'zolarida badiiy did va bunga ehtiyojni rivojlantirish, shu tariqa tabiat va jamiyat, odam va olam go'zalliklarini anglash hamda ularga o'z munosabatini bildirish xususiyatlarini rivojlantirish va hk.



Ta'lim metodlari o'qitishning shunday yo'li-ki, ular tizimli tarzda, maqsadga muvofiq shaklda qo'llanilsa, har qanday pedagogik faoliyatning umumiy yo'nalishiga sezilarli darajada o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Mehribonlik uylari badiiy to'garaklari faoliyatida yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda, umumpedagogik metodlarning yana biri "Suhbat" metodidan ham muntazam ravishda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. [5,63.b]

Suhbat metodidan foydalanishning samaradorligini ko'plab mutaxassislar va amaliyotchilar boshqa o'quv fanlari misolida e'tirof etishgan. Maktablardagi badiiy

to'garaklar faoliyatini tashkil etish jarayonida mazkur metod o'quvchilar bilish faoliyatining mantiqini asoslash, to'garak rahbarining a'zolar faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishni ta'minlash imkonini ham beradi. [6,96.b]

Umumta'lim maktablarida tashkil etilgan badiiy to'garaklar faoliyati samaradorligini ta'minlashda umumiy pedagogikaga xos bo'lgan **"Izlanish metodi"** ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda to'garak a'zolari she'r matni, undagi timsollar haqida qo'shimcha manbalardan ma'lumotlar izlab topadilar, ulardagi fikr-mulohazalar bilan tanishadilar, asardagi yetakchi fikr va u bilan bog'liq tasavvurlarini boyitadilar. Mazkur jarayonda to'garak rahbari ularga yaqin ko'makdosh bo'lishi taqozo etiladi. [7,49.b]

Xulosa va takliflar. Musiqa inson tafakkurining alohida bir xususiy shakli sifatida namoyon bo'larkan, u o'zining asosiy vazifasini – inson bilan muloqotga kirishish jarayonini amalga oshiradi. Ya'ni musiqa inson organizmi, tuyg'ulari bilan uyg'unlashib ketadi. Bunday uyg'unlashuv jarayoni alohida, o'ziga xos metodlarni ham taqozo etadi. Yuqorida aytib o'atilgan metodlar ko'magida san'atga o'rgatishning ideal maqsadi – san'at asarlarini o'zlashtira olish va u orqali boshqalar bilan muloqotga kirishish, shaxsni badiiy shakllantirish singari ishlar amalga oshiriladi.

Musiqiy ta'limning xususiyatlarini bir vaqtning o'zida ta'lim berib, ayni zamonda tarbiyalaydigan musiqa san'ati

belgilaydi. Ya'ni musiqa ta'limida qo'llaniladigan metodlar ta'lim berish va tarbiyalash jarayonini uyg'unlikda amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu jarayonda shaxs san'at bilan tarbiyalanadi. Musiqiy ta'lim amaliyotida o'quvchilarning badiiy faoliyati: a) musiqani tinglash; b) uni ijro etish; v) yaratish uchligi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Bolalarning o'z xususiy ijodiy faoliyatini tashkil etishda san'atni qabul qilishi, o'zlashtirishi va u bilan muloqotga kirishishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan ko'rinadiki, umumpedagogik ta'lim va tarbiyaning metodlarini musiqa ta'limi jarayoniga uning yuqoridagi xususiyatlarini inobatga olgan holda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan badiiy to'garaklar faoliyati samaradorligini ta'minlashda umumpedagogik metodlardan: muammoli metod va unga daxldor bo'lgan, muammoli vaziyatlar yaratish, muammoli savollar qo'yish, muammoli ma'ruzalar, asar g'oyasini muammoli muhokama qilish kabilardan ham o'rniga qarab, vaziyat taqozosi bilan foydalanish mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari tizimida tashkil etiladigan badiiy to'garaklar faoliyatini, to'garaklar rahbarlari va a'zolarining o'zaro hamkorlikdagi harakatlarini ta'minlovchi tizim kuy, qo'shiq va raqslarni samarali tashkil etishda foydalanish mumkin bo'lgan ta'lim metodlari va usullari orqali to'garaklar faoliyati samaradorligini ta'minlash imkoniyatlari kengayadi.

Adabiyotlar

1. Abdullin E. B. Teoriya muzыkalnogo obrazovaniya: Uchebnik dlya studentov vysshix uchebnykh pedagogicheskix zavedeniy. – Moskva: FLITA, 2004.
2. Bezborodova L. A., Aliev Yu. B. Metodika prepodavaniya muzyki v obshchobrazovatelnykh uchrejdeniyax. – Moskva: Pedagogika, 2002.
3. Dvoynina G. B. Metody obucheniya muzyke v sovremennoy shkole.
4. Osenneva M. S., Bezborodova L. A. Metodika muzыkalnogo vospitaniya mladshix shkolnikov. – Moskva: Prosveteniye, 2001.
5. Soipova D. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent.; 2009 y.
6. Sharipova G.M. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. Toshkent.; 2006 y.
7. Xo'jayeva M. Umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish metodikasi. o'quv qullanma. – T. 2008
8. Karimova.D.A. Musiqa tugaragini tashkil etish. .- Toshkent.; 2001 y.

РЕЗЮМЕ. Ushbu maqolada umumta'lim maktablari musiqa to'garaklari faoliyati yo'naltirilgan ta'lim metodlarining tavsifi, xususiyatlari hamda tugaraklar jarayonida ushbu metodlardan foydalanishning qisqacha mazmun-mohiyati yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье освещены описание, характеристика воспитательных методик, ориентированных на деятельность музыкальных кружков общеобразовательных школ, а также краткое содержание и суть использования этих методик в ходе кружков.

SUMMARY. This article highlights the description, characteristics of educational methods focused on the activities of musical circles of general education schools, as well as a summary and essence of the use of these methods in the course of circles.

ВОСПИТАНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ

О.М.Володько' – кандидат педагогических наук, доцент
Белорусского национального технического университета

Таянч сўзлар: ижтимоий масъулият, экологик маданият, ахлокий ўз-ўзини англаш, таълим майдони, "ижтимоий пакет".

Ключевые слова: социальная ответственность, экологическая культура, нравственное самосознание, воспитательное пространство, «социальный пакет».

Key words: social responsibility, ecological culture, moral consciousness, educational space, "social package".

Введение. Менеджмент играет в современном обществе весьма значительную роль, от которой во многом зависит экономический успех и социальное спокойствие. Решение многих социальных проблем возлагается именно на менеджмент. Более того, современный человек проводит на работе почти треть своей взрослой жизни, и эта часть рассматривается как «профессиональная жизнь», которая должна быть интересной и творческой, предоставлять возможности для самореализации личности.

Концепция ответственности менеджмента перед обществом относительно проста, она означает, что руководители организаций должны в своей

деятельности поступать в соответствии с принятыми моральными нормами, принимать на себя заботу о соблюдении общественных интересов. Чтобы справиться задачами, которые общество ставит перед менеджментом, необходимы соответствующие подходы и направленность, а также внутренняя позиция самих менеджеров [1; 5]. В связи с этим важнейшей задачей высшей школы является воспитание социальной ответственности в процессе профессиональной подготовки будущих менеджеров.

Основная часть. Социальная ответственность менеджмента – это обязанность руководителей всех рангов осуществлять деятельность, которая